

O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA ANTROPOSENTRIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI

Badalova Xamidaxon Hakimjonovna

Andijon Davlat Tibbiyot Instituti

badalovaxamidaxon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22659903>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 7-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 8-sentabr 2026-yil

Annotatsiya:

Ushbu maqolada fransuz va o'zbek tillaridagi antroposentrik frazeologik birliklarning chog'ishtirma tahlili amalga oshirilgan. Har ikki tildagi iboralarda insonning tashqi qiyofasi, ruhiy holati, xarakter xususiyatlari hamda aqliy salohiyatini ifodalovchi frazeologizmlar milliy-madaniy va lingvokulturologik jihatdan qiyoslanadi. Tadqiqot natijasida har ikki xalqning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimidagi o'xshash va farqli tomonlar ochib bergan.

Kalit so'zlar:

antroposentrizm, frazeologik birlik, chog'ishtirma tilshunorlik, lingvokulturologiya, somatik iboralar, fransuz tili, o'zbek tili.

Kirish

Tadqiqotning dolzarbligi: Zamonaviy tilshunoslik rivojining hozirgi bosqichida tildan foydalanuvchi inson omiliga yo'naltirilgan antroposentrik paradigma yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Til nafaqat axborot almashish vositasi, balki muayyan etnosning dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari va milliy ruhiyatini saqlovchi hamda namoyon etuvchi ko'zgudir. Shu nuqtai nazardan, tildagi iboralar va frazeologik birliklar insonning milliy va umuminsoniy qiyofasini eng yorqin va ixcham ifodalovchi lisoniy qatlam sanaladi. O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganish va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga berilayotgan yuksak e'tibor fransuz va o'zbek tillarini qiyosiy-chog'ishtirma yo'nalishda tadqiq etish zaruriyatini taqozo etadi. Hind-yevropa va turk tillar oilasiga lingvokulturologik jihatdan chog'ishtirish, ulardagi milliy-madaniy xususiyatlar, o'xshashlik hamda farqlarni aniqlash mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari: Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi fransuz va o'zbek tillaridagi antroposentrik frazeologik birliklarni chog'ishtirma tahlil qilish hamda ularning semantik va lingvokulturologik xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish nazarda tutilgan.

Fransuz va o'zbek tillaridagi antroposentrik iboralarni ajratish va ularni semantic-funksional guruhlariga tasniflash

Har ikki tildagi somatik komponentli iboralarning inson xarakteri, aqli va hissiyotlarini ifodalashdagi rolini aniqlash.

Milliy-madaniy universalliklar va national-spetsifik xususiyatlarni qiyosiy tahlil qilish.

Tadqiqot obyekti va predmeti: Fransuz va o'zbek tillaridagi antroposentrik iboralar va frazeologik birliklar majmui tadqiqot obyekti tashkil etadi. Ushbu iboralarning chog'ishtirma-semantik va lingvokulturologik xususiyatlari esa tadqiqot predmetidir.

Tadqiqot metodologiyasi va usullari

Tadqiqot metodologiyasi antroposentrik tilshunoslik, lingvokulturologiya va chog'ishtirma tilshunoslikning nazariy qoidalariga asoslanadi. Ishda quyidagi ilmiy va lisoniy tahlil usullaridan foydalanildi.

1. Chog'ishtirma-qiyosiy tahlil usuli - ikki turli tizimli tillardagi iboralarining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashda:

2. Semantik-komponentli tahlil - iboralarining ichki semantic tuzilishi hamda somatizmlarning ma'no hosil qilishdagi o'rnini yoritishda:

3. Lingvokulturologik va konseptual tahlil - frazeologizmlarda aks etgan milliy-madaniy va etnomadaniy qadriyatlarni ochib berishda

Antroposentrik frazeologizmlarning semantik guruhlanishi va tadqiqi.

Inson omili bilan bog'liq iboralar (antroposentrik frazeologizmlar) aksariyat hollarda somatizmlar (inson tanasi a'zolari nomlari) asosida shakllanadi. Har ikki tilda ushbu iboralarni quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin.

1. Insonning xarakteri va ruhiy holatini ifodalovchi iboralar.

O'zbek tilida :Bag'ri keng (mehribon bag'rikeng), Yuzi qora (uyatsiz, aybdor), Yuragi dov urmaydi (cho'chiydi)

Fransuz tilida :Avoir le coeur sur la main (so'zma-so'z: yuragi qo'lida bo'lmoq-saxiy, bag'ri keng), Avoir de la tete (aqli, mulohazali bo'lmoq), Etre sans Coeur (yuraksiz, bag'ritosh bo'lmoq)

2. Aqliy va intellektual salohiyatni tasvirlovchi iboralar.

O'zbek tilida: Kallasi ishlaydi (aqli), Aqli kaltalik qilmoq (tushunmaslik, Kallasi g'ovlamog (charchamoq)

Fransuz tilida :Avoir une tete bien fait (o'tkir aqlga ega bo'lmoq), Avoir une tete de linotte (so'zma-so'z: chittakning kallasiga ega bo'lmoq-yengiltak, parishonxotir)

3. Insonning emotsional holatini ko'rsatuvchi

O'zbek tilida :Tili kalimaga kelmay qolmoq (juda qo'rqmoq), Tobi qochmoq (mijozi buzilmoq)

Fransuz tilida: Avoir les jetons (qo'rqmoq), Perdre la tete (es-hushini yo'qotmoq)

Milliy - Madaniy va chog'ishtirma tahlil.

Fransuz va o'zbek tillaridagi antroposentrik frazeologizmlarni qiyoslaganda quyidagi mushtarak va farqli jihatlar ko'zga tashlanadi.

Semantik guruh	Fransuz tilidagi misol	O'zbek tilidagi ekvivalenti /muqobili	Tipologik xususiyati
Saxiylik/Bag'rikenlik	Avoir le Coeur sur la main	Bag'ri keng /Qo'li ochiq	Universallik (yurak va qo'l obrazlari ishlatilgan)
Parishonxotirlik	Avoir la tete dans les nuages	Xayoli qochmoq/Boshi osmonda bo'lmoq	Metaforik o'xshashlik
Kibr/Mag'rurlik	Avoir la grosse tete	Boshi ko'kka yetmoq/Kaltak yutganday bo'lmoq	Konseptual farqlanish
O'ylamasdan gapirish	Avoir la langue bien pendue	Tili uzun bo'lmoq /Tili jag'iga tegmaslik	Somatik component o'xshashligi (til-langue)

Universallik: har ikki xalq ham insonning hissiyotlari va ichki kechinmalarini ifodalashda bitta somatik a'zodan -yurak (le Coeur) va bosh (la tete) obrazlaridan unumli foydalanadi.

Natsional-soetsifik farqlar: O'zbek tilida inson xarakterini tasvirlashda sharqona bosiqlik, andisha, ibo kabi tushunchalar (yuzi chidamoq, tili qisqa) ustuvor bo'lsa, fransuz tilida ko'proq insonning individualligi, erkinligi va his-tuyg'ularini ochiq namoyon etishi (garder son sang-froid-sovuqqonlikni saqlamoq) aks etadi.

XULOSA

Fransuz va o'zbek tillaridagi antroposentrik frazeologik birliklarning chog'ishtirma tadqiqi shuni ko'rsatadiki, tildagi iboralar shunchaki lisoniy hodisa bo'lib qolmay, balki xalqning madaniy xotirasi va dunyoqarashi mahsulidir. Har ikki tilde ham inson tanasi a'zolari (somatizmlar) antroposentrik iboralarning shakllanishida asosiy derivatsiyon baza hisoblanadi. O'xshashliklar insoniyat psixologiyasining umummilliylikidan dalolat bersa, farqli jihatlar har bir xalqning o'ziga xos milliy -madaniy qadriyatlari bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalaridan oliy ta'lim muassasalarida "Chog'ishtirma tipologiya", "Lingvokulturologiya", "Fransuz tili leksikologiyasi va frazeologiyasi" fanlarini o'qitishda, tarjimashunoslik hamda ikki tilli (fransuzcha-o'zbekcha, o'zbekcha-fransuzcha) izohli va frazeologik lug'atlarni tuzishda amaliy manba sifatida foydalanish mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Maslova V. A. Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiya, 2018. – 208 s.
2. Xudoyberganova D. Antropotsentrik tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalari. – Toshkent: Fan, 2020. – 148 b.
3. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2021. – 232 b.
4. Jumayeva M. SH. Fransuz va o'zbek tillarida somatik frazeologizmlarning lingvokulturologik tadqiqi: Filol. fan. b. falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2022. – 52 b.
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 380 b.
6. Rey A., Chantreau S. Dictionnaire des expressions et locutions. – Paris: Le Robert, 2019. – 1088 p.
7. Rey-Debove J. Le Petit Robert de la langue française. – Paris: Dictionnaires Le Robert, 2021. – 2880 p.

Аннотация:

В данной статье проведен сопоставительный анализ антропоцентрических фразеологических единиц французского и узбекского языков. В лингвокультурологическом и национально-культурном аспектах сравниваются фразеологизмы обоих языков, отражающие внешний вид, эмоциональное состояние, черты характера и интеллектуальные способности человека. В результате исследования выявлены сходства и различия в мировоззрении и системе ценностей представителей двух культур.

Ключевые слова:

антропоцентризм, фразеологическая единица, сопоставительное языкознание, лингвокультурология, соматические фразеологизмы, французский язык, узбекский язык.

Abstract:

This article presents a comparative analysis of anthropocentric phraseological units in the French and Uzbek languages. Phraseological expressions in both languages that describe a person's appearance, emotional state, character traits, and intellectual capacity are compared from national-cultural and linguacultural perspectives. As a result of the study, similarities and differences in the worldview and value systems of both cultures are revealed.

Keywords:

anthropocentrism, phraseological unit, comparative linguistics, linguacultural, somatic, idioms, French language, Uzbek language.